



## Contents, means and methods of developing the professional potential of primary school teachers based on an innovative approach

Mekhrikhon RAKHMONOVA<sup>1</sup>

Fergana regional national center of training teachers in new techniques

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received October 2023

Received in revised form

15 November 2023

Accepted 25 November 2023

Available online

15 January 2024

**Keywords:**

innovative approach,  
intellectual approach,  
speech technique,  
communication,  
pedagogical technique,  
multimedia.

### ABSTRACT

This article is about increasing the activity, general and professional knowledge, and responsibility of teachers through the use of tools and methods for developing the professional potential of teachers based on innovative approaches.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss10/S-pp25-33>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Innovatsion yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy potensialini rivojlantirishning mazmuni, vositalari va usullari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

innovatsion yondashuv,  
intellektual,  
nutq texnikasi,  
muloqot,  
pedagogik texnika,  
multimedia.

Ushbu maqolada muallif tomonidan innovatsion yondashuvlar asosida o'qituvchilarning kasbiy potensialini rivojlantirish vositalari va usullari, ularning faolligini, umumiy va kasbiy bilimlarini hamda mas'uliyatlarini oshirish to'g'risida fikrlar ilgari surilgan.

<sup>1</sup> Teacher, Fergana regional national center of training teachers in new techniques.

# Содержание, средства и методы развития профессионального потенциала учителей начальных классов на основе инновационного подхода

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

инновационный подход,  
интеллектуальный  
подход,  
речевая техника,  
общение, педагогический  
прием,  
мультимедиа.

В данной статье обсуждается повышение активности, общих и профессиональных знаний, а также ответственности учителей через применение инструментов и методов развития профессионального потенциала на основе инновационных подходов.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllanib, rivojlanib borishini ta'minlashga xizmat qiluvchi boshlang'ich ta'lim tizimida o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish, kichik maktab yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning pedagogik va psixologik asoslarini optimallashtirishga olib keluvchi ilmiy qarashlar, pedagogik nazariyalar va didaktik materiallar yaratish imkonini beradi.

Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchilari yuqorida keltirilgan kasbiy kompetensiyalarni egallashda tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang'ich ta'limning integrativ xarakterini, o'zining kasbiy faoliyatining integrativ yo'nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy potentsiallikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida o'quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo'llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi kerak. Pedagogik muloqot esa, bu o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi.

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabat vositasidir. V.D.Suxomlinskiy "...o'qituvchining maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak", deb ta'kidlaydi. O'qituvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman olganda ilg'or o'qituvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi.

Bunday hollarda pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari hamda o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi prinsiplarda namoyon bo'ladi:

- kommunikativ muloqot;
- interaktiv muloqot;
- perseptiv muloqot.

1. Kommunikativ muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi birlari bilan muloqotga kirishish jarayonida muloqotning muhim vositalari bo'lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Interaktiv muloqotning muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi o'qituvchi o'zaro ta'sir etishda, o'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, xatti-harakat va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3. Perseptiv muloqotda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi.

**Pedagogik texnika** – pedagogik texnika asoslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unga erishish pedagogik, psixologik hamda amaliy tayyorgarlik bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Pedagogik texnikani o'zlashtirishda o'qituvchi o'quvchi xulq-atvori, xatti-harakatlarining tashqi belgilarga ko'ra uning ichki holatini belgilay olish malakasiga ega bo'lishi nihoyatda muhimdir.

Pedagogga xos bo'lgan pedagogik texnikaning muhim elementlari:


1) uning o'z diqqati hamda o'quvchilar diqqatini maqsadli boshqarish;

2) pedagogik faoliyatda jarayonning, o'quvchilar harakatining sur'atini his qilish sanaladi.

Pedagog tomonidan o'quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlariga o'zining sub'yektiv munosabatini, alohida his-tuyg'ularini ma'noli ifodalay olishi u ega bo'lgan pedagogik texnika usullari hisoblanadi.

Bir so'z bilan aytganda, pedagogik jarayonda "texnika" tushunchasi o'qituvchining pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari majmuiga egaligini ifodalaydi. Pedagogik texnikaning vositalari – nutq va og'zaki bo'lmagan muloqot vositasi sanaladi. Pedagogik texnikani egallash pedagog oldida turgan muhim pedagogik vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

Manbalardan birida ko'rsatilishicha, pedagogik texnika quyidagi ikki guruh metodlarini o'z ichiga oladi:



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda yosh o'qituvchilarning pedagogik texnikasida quyidagi juz'iy kamchiliklar uchrashini tasdiqlaydi:

- 1) o'quvchi yoki uning ota-onasi bilan sidqidildan so'zlasha olmaslik;
- 2) g'azabni to'xtata olmaslik yoki uni o'z o'rnida ishlata olmaslik;
- 3) o'zida ishonchsizlikni yenga olmasligi;
- 4) nutqini ravon etmaslik;
- 5) ortiqcha qattiqqo'llik;
- 6) xushmuomala bo'lishdan qo'rqish;
- 7) juda tez gapirish (ayniqsa darslarda);
- 8) ortiqcha harakat yoki bir joyda qotib qolish, qo'llarini qayerga qo'yishni bilmaslik;
- 9) o'z gavdasini tutishda muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yish (bukchayib, yerga qarab yurish, o'rinsiz kulish, ortiqcha harakat, qo'lida turli jismlarni aylantirib yurish);
- 10) monoton – bir ohangda so'zlash, nutqning zerikarliligi, jonli emasligi;
- 11) ifodali o'qish, so'zlarni aniq, to'g'ri talaffuz qila olmaslik (noto'g'ri diksiya), sinf xonasi, auditoriya uchun zarur tovush balandligini belgilay olmaslik.

Bu kabi kamchiliklar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga samarali ta'sir ko'rsatilishiga imkon bermaydi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik texnika ko'nikma va malakalarini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Vazmin, xushmuomala, o'ziga ishongan pedagog faoliyatining ilk bosqichlaridanoq o'quvchilar mehrini qozona oladi. Buning uchun o'qituvchi, eng avvalo, o'z hissiy holatlarini, tuyg'ularini boshqara olishi kerak.

Pedagogning o'quvchilar bilan muloqoti rasmiy xarakterga ega. Aksariyat holatlarda jismoniy toliqishni, ruhiy zo'riqishni, o'z-o'ziga nisbatan ishonchsizlikni va tanglikni keltirib chiqaradi. Natijada o'qituvchining nutqi qat'iylik kasb etmaydi, ovozda nuqsonlar ko'zga tashlana boshlaydi, oyoq va qo'llar toliqadi. Bu kabi salbiy hodisalarning kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi o'zini dars boshlanishidan avval ta'lim jarayoniga ruhan tayyorlashi, bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli salbiy holatlarga o'zini psixologik jihatdan tayyorlashi, imkon qadar ruhiy barqarorlikka erishishi talab qilinadi.

O'qituvchi ta'lim va tarbiya jarayonlariga o'zini ruhan tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- o'ziga, o'z imkoniyatlariga ishonish;
- xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash;
- o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish (mushaklar zo'riqishini bartaraf etish, qomatni rostlash, harakatlarni to'g'rilash, nutqning ravon, aniq bo'lishiga e'tibor qaratish va to'g'ri nafas olishni o'zlashtirish);
- aqliy va jismoniy mehnatni tashkil etishda o'zaro uyg'unlikka erishish, muayyan davrlarda hordiq chiqarish (mehnat yoki musiqa yordamida dam olish, badiiy asarlarni o'qish, yaqinlar, do'stlar bilan hazil-mutoyibani tashkil etish);
- pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli, samarali kechishiga o'zini o'zi ishontirish;
- kasbiy faoliyatni ko'tarinki kayfiyat bilan tashkil etishga intilish;
- turli salbiy ruhiy omillar organizmiga, ruhiy holatiga, xatti-harakatlariga, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan munosabatiga ta'sir etishiga yo'l qo'ymaslik;
- salbiy ruhiy omillar va jismoniy holatlarni bartaraf etish uchun trening va avtotreninglardan samarali foydalanish malakasini o'zlashtirish.

Ruhiy barqarorlikka erishishda o'qituvchi o'z faoliyatida V.Suxomlinskiy tomonidan tavsiya etilgan quyidagi shartlarga rioya qilish kutilgan natijani qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi: qosh-qovoqni uyib yurmaslik; boshqalarning kamchiliklari, nuqsonlarini oshirib ko'rsatmaslik; hazil-mutoyibaga moyil bo'lish; xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash.

**Nutq texnikasi.** O'qituvchining o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishida uning nutqi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. O'qituvchi nutqi – pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalanishi.

O'qituvchi nutqi ham nutq tovushlarini hosil qiladigan nutq organlarining ishtirokida tashkil etiladi. Nutq hosil qiluvchi organlar – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlardan (o'pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo'g'iz, hiqildoq, halqum, tishlar, lablar, burun bo'shlig'i) iborat.

Odatda, o'quvchilar o'qituvchining nutqiga jiddiy e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovushning noto'g'ri talaffuz qilinishi ularning kulgilariga sabab bo'ladi. Monoton (bir ohangli) nutq, haddan tashqari baland ovoz tinglovchini tez charchatsa, past ovozda so'zlash esa o'quvchilar faoliyatining sustlashuviga olib keladi. Individual suhbat paytidagi baland ovozdan o'quvchi o'zini aldanayotgandek his etganligi sababli unga nisbatan ishonchsizlik bilan qaraydi. Tovush va uning tembri tug'ma xususiyat deb ham e'tirof etiladi. Lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatini o'zgartirish mumkinligini tasdiqlaydi. Shu bois har bir o'qituvchi nutq texnikasini puxta o'zlashtira olishi lozim.


**Nutq texnikasi** – nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar majmui. Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir qancha majmuaviy mashqlar asoslangan. Ular so'zlashish paytida to'g'ri nafas olish, tovush hosil qilish va nutqni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtirishga yordam beradi.

O'qituvchi nutqining hosil bo'lishida nafas olish muhim ahamiyatlidir.

Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funksiyani bajarish bilan birga nutqning energiya bazasi ham hisoblanadi. Nutqli nafas olish tovushli nafas olish (fonatsion, yunonchadan "phono" – tovush) deb nomlanadi. Insonning kundalik hayotidagi nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. Shuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Kasbiy faoliyatni tashkil etishda, ayniqsa, dars jarayonida o'qituvchi uzoq so'zlaydi. Bu esa yangi mavzuni tushuntirish, ma'ruza o'qish bilan bog'liq. Agar o'qituvchi nafas olish texnikasini yaxshi egallamagan bo'lsa, unda pedagogik faoliyat jarayonida uzoq so'zlash oqibatida tomir urishining tezlashuvi, yuzning qizarib ketishi, nafas qisilishi ro'y beradi.

**Nutq madaniyati** – bu o'z fikrini nutq yordamida mantiqli, to'g'ri, obrazli, aniq va ifodali yetkazib berish malakalarining o'zlashtirilganlik darajasi. Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda nutqning monolog, dialog, polilog shakllaridan foydalaniladi.

O'qituvchi faoliyatida ham nutqning aynan mana shu shakllaridan foydalanish holatlari kuzatiladi:



O'qituvchi sinfda og'zaki nutqning turli shakllaridan foydalanadi.

Quyida sinflarda ko'proq nutqning dialog va polilog shakli samaralidir, chunki bu bosqichda ta'lim asosan suhbat usuliga asoslanadi. Monologik nutqdan o'qituvchi hikoya, tasvir, ta'rif, tavsif xarakteridagi mavzularni bayon etishda foydalanadi. O'rganilayotgan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda o'qituvchi har bir darsda og'zaki nutqning barcha shakllaridan o'rinli, maqsadli foydalanishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi mutaxassislikka oid ishining yirik bo'lagini nutqi orqali amalga oshiradi. Shuning uchun uning nutqi hamma vaqt g'oyaviy yuksak, ravon, yumshoq, dilkash bo'lishi lozim. Nutqda subutsizlik o'qituvchi uchun noloyiqdir. Har bir nutq bolalarning yosh xususiyatlarini, bilimi va tushunchasini nazarda tutib tuzilishi shart. Shu bilan birga, o'qituvchining nutqi yosh avlod ko'z oldida uni o'rab olgan moddiy va ma'naviy dunyoning yangi qirralarini ochib borishni maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchining nutqi ta'lim va tarbiya berishning asosidir.

O'qituvchining nutqi imkoni boricha sintaktik (yunoncha syntaxis – tuzish, biriktirish, birikma; biror tildagi so'zlarning so'z birikmalariga va gaplarga birikish usullari; so'z birikmalari va gaplarning turlari va ma'nolari) jihatdan sodda, jozibador, ta'sirchan tuzilishi lozim.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini belgilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir.

O'qituvchi pedagogik faoliyatni tashkil etish uchun pedagogika nazariyasi, falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi, psixologiya, siyosatshunoslik kabi fanlarni bilishi shart hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvning rivojlanishi pedagogika fanini o'qitishda fanlar aloqadorligini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Binobarin, o'qituvchilik kasbining mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda o'qituvchilik kasbining asosiy xususiyatlari pedagogika fani orqali shakllantiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ta'lim jarayonini loyihalash, pedagogik texnologiyani o'zlashtirish, kommunikativ sifatlar va tadqiqotchilik faoliyatiga oid ko'nikmalar past darajada ekanligini ko'rsatmoqda.

O'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi. Asosiysi, o'qituvchini uzluksiz kasbiy potensialini rivojlantirishga erishish mumkin. O'qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Shuningdek, multimedia texnologiyalari grafika va grafikaviy ta'lim jarayonlarini modellashtirish va ularni tasavvur qilish, murakkab vazifalarni yengillashtirish, mantiqiy fikrlashga undovchi materiallarni tayyorlash imkonini beradi hamda o'quvchilarning fanga qiziqтира olishi va yangi mavzularni o'zlashtirishga zamin yaratadi.

"Multimedia" atamasining asosiy ma'nosi multi muhitni anglatadi. Odatda, multimedia deganda, turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Ayni vaqtda bu, avvalo, tovushlar, videoelementlarni qayta ishlovchi vositalardir. Shu bilan birga, multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika hollarida ham multimedia haqida gapirish mumkin. Shuningdek, noverbal, audiovizual, vizual, audio, tabiiy vositalar aytish mumkin.

Pedagog va psixolog olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari, kuzatishlari va ilmiy tajribalariga asoslangan holda o'qituvchilarning rahbar sifatida sinf jamoasini boshqarishida qo'llaydigan uslublari quyidagicha tavsiflanadi:

- Avtoritar uslub;
- Demokratik uslub;
- Liberal uslub.

**Avtoritar** uslubda faoliyat olib boradigan o'qituvchi ish faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi:

- o'zi yakka holda guruh faoliyatining yo'nalishlarini belgilaydi;
- o'zi o'quvchilarga ko'rsatmalar va buyruqlar beradi;
- ta'lim-tarbiyaviy jarayonga javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- o'quvchilarning unga so'zsiz bo'ysunishini da'vo qiladi;
- qattiq intizom asosida ish olib boradi;
- topshiriqlarning to'liq bajarilishini talab qiladi;
- gap qaytargan, fikr bildirgan o'quvchini yoqtirmaydi;
- aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi, so'zlari qattiq va qo'pol;
- o'quvchilarga biror vazifani to'liq tushuntirmasdan talab qiladi.

**Demokratik uslub** asosida faoliyat olib boradigan o'qituvchining bosh shiori o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini va ongli intizomni hosil qilishdan iborat. O'qituvchining muloqoti barcha demokratik talablar asosida quriladi. Zero, "demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi". Ushbu uslubni mukammal egallagan o'qituvchi o'z pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlarni mujassamlashtiradi:

- pedagogik faoliyatda sinf jamoasining fikr mulohazalariga tayanib ta'lim tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi;

- sinf jamoasining tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, o'quvchilarning erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratadi;

- muloqot jarayonida o'quvchilar fikr-mulohazalarini inobatga olib, pedagogik faoliyatida qo'llaydi;

- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos, maslahat berish, samimiy muomala.

Demokratik uslubda muloqotni tashkil etuvchi o'qituvchi hozirgi zamon talablariga, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan kutilayotgan maqsadlarga javob bera oladi. O'qituvchining vazifasi ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxs tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb bilgan holda, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan tengdoshlariga namuna bo'ladigan, bilimli, ma'rifatli, aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli o'quvchilarni tarbiyalash uchun qizg'in pedagogik faoliyat olib borishi lozim.

Muloqot jarayonida o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Samarali demokratik tarbiyaviy jarayon, sinf jamoasi a'zolarining qobiliyat va iste'dodlarini yuzaga chiqaradi, o'quvchining jamoada har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar paydo qiladi. O'quvchilar bilan muloqotning erkin demokratik asosda tashkil etilishi sinfning ahil jamoa bo'lib birlashib, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatlarga erishishiga zamin yaratadi. Yaxshi uyushgan jamoada har bir o'quvchining fikri ulkan tarbiyaviy kuchga ega.

**Liberal uslub.** Kasbiy layoqati yo'q bo'lgan o'qituvchilarga xos bo'lgan uslubdir. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir o'quvchi o'z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. Bola o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida bu usulni qo'llab bo'lmaydi.

Bu turdagi o'qituvchining pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mavjud: – tashabbussiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi;

- sinf jamoasining tarbiyaviy faoliyatiga aslo aralashmaydi;
- ta'lim-tarbiyaga oid muammolarga yuzaki qaraydi;
- o'z mustaqil fikriga ega emas, javobgarlikdan o'zini olib qochadi;
- o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning natijalari bilan qiziqmaydi;
- o'quvchilar kelajagiga, taqdiriga e'tiborsiz, loqayd qaraydi;
- o'z pedagogik faoliyatiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.G.Muhiddinov, O'quv jarayonida nutq faoliyati. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 65 bet.
2. Osnovi pedagogicheskogo masterstva / Pod red. A.Zyuzina. – Moskva: Prosveshchenie, 1989. – 302 s.
3. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar / Ma'ruzalar matni. Tuzuvchilar: A.X.Qosimov, F.A.Holikova. – Toshkent: TATU, 2004. – 132 bet.
4. N.Sayidahmedov, Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: Oliy pedagogika instituti, 2003. – 125 bet.
5. G.A.Sultonova, Pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005. – 149 bet.
6. B.Husanov, V. G'ulomov, Muomala madaniyati / Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009. – 156 bet.
7. Suxomlinskiy, V. A. O vospitaniy / V. A. Suxomlinskiy. M.: Politizdat, 1973.-270 s.
8. M.X.Raxmonova, "O'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanishning jamiyatdagi roli" .o'quv qo'llanma Farg'ona.2023 120 –bet
9. M.X.Raxmonova, Ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potentsialligini rivojlantirish pedagogik ahamiyati// Eurasian Journal of Academic Research №1 2022 B.1023-1026



10. Karimova M.O PEDAGOGICAL BASES OF TRAINING OF FUTURE TEACHERS, “O‘zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 yil, 12 may.

11. Rafikova, D., Karimova, M., Yuldasheva, N., Oltmisheva, N., Rustamova, N., & Sodikov, U. (2023, June). Preparing to innovative activity: Problem solving. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

12. Tarbiyaviy ishlar metodikasi / Pedagogika institutlari uchun o‘quv qo‘llanma. L.I.Ruvinskiy tahriri ostida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – 376 bet.

13. A.Holiqov, Pedagogik mahorat / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2010. – 311 bet.